

ABDULLA AVLONIY DARSLIKLAR YARATISH YO'LIDA

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

3-bosqich talabasi

ABDULLA AVLANI IS ON THE WAY OF CREATING TEXTBOOKS

Jorayev Oybek Sherali ogli

TDPU named after Nizami, Uzbek language and literature department

3rd grade student

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Turkiston jadid maktablari uchun milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining atoqli namoyondasi Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan darsliklar haqida so'z yuritilgan.

Abstract:

This article talks about the textbooks created by Abdulla Avlani, a famous representative of the Uzbek literature of the national renaissance period, for the modern schools of Turkestan.

Kalit so'zlar: ta'lim, darslik, pedagogika, diniy, dunyoviy, ilm, madrasa, tarbiya.

Keywords: education, textbook, pedagogy, religious, secular, science, madrasah, education.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odoq-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – albatta, yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya ortidan [2].

Barcha zamonlarda ham yoshlarning bilimli, yuksak darajada intellektual salohiyatli bo'lib ulg'ayishi ularning yaxshi ta'lim-tarbiya olishiga bog'liq bo'lgan. Shu sababli ham ilmda ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo'lmas ekanligi ta'kidlanadi.

Insonning yaxshi ta'lim olishida bevosita yaxshi muhit, moddiy-ma'naviy sharoit, darslik masalalari muhim ro'l o'ynaydi. Bugun matbuotda prezidentimiz tomonidan darsliklar sifatini yaxshilash, Yevropa standartlariga javob beruvchi Finlandiya davlati darsliklaridan andoza olgan holda, jahon standartlari bilan raqobatbardosh darsliklar yaratish bugungi kunda hukumat oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'tgan asrning boshlarida jadidlar maktablari ochish va ularga darsliklar yaratish ma'suliyatini o'z zimmalariga oladilar.

Mazkur jarayonda Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Tavallo, Munavvarqori, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullayev, Is'hoqxon Ibrat, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy kabi bir qancha jadidlar faol ishtirok etdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor...", - deb bejiz ta'kidlamagan edi [3].

Jadidlar tomonidan yangi usul maktablari ochilgunga qadar ham Turkiston madrasalarida tolibi ilmlarga dars berilar edi. Lekin bu darslarni o'tishda diniy bilimlar berishga alohida urg'u qaratilgan bo'lib, darsliklar ham arab yoki fors tilida bo'lgan.

Abdulla Avloniy o'z tarjimai holida Turkistonda o'rgatiladigan darsliklar haqida shunday ma'lumot keltiradi: «Bizim Turkiston makotibi islomiyasida avvaldan oxira qadar ta'lim olinajak kitoblar: «Sabotul ojizin», «Fuzuliy», «Navoiy», «Xo'ja Xofiz», «Bedil», «Maslak ul- muttaqiyn»lar kabi she'r kitoblari o'ldig'i jumlaning ma'lumidir. Bu kitoblarning ba'zilari e'tiqod va amaliyoti islomga taalluq mushkul masalalardan iborat o'lg'onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg'onlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi» [1; 176-b].

Madrasalarda o'tiladigan fanlar islom dini asosiga qurilgan, dunyoviy fanlar o'tilmas edi. Jadidlar tomonidan esa dunyoviy fanlarning ham o'tilishiga ham e'tibor berildi. Shu yo'sinda darsliklar yaratila boshlandi.

Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan «Muxtasari tarixi islom» (Islomning qisqacha tarixi), «Madxali jo'g'rofiya umroniy» (aholi jo'g'rofiyasiga kirish), «Muxtasari jo'g'rofi rusiy» (Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi), «Amaliyoti islom» (Islom amaliyoti), Is'hoqxon Ibrat tomonidan «Lug'ati sittati al-sina», Jome ul-xutut», «Tarixi Farg'ona», «Matbaai Is'hoqiya», «Tarixi madaniyat», «Mezon uz-zamon», Saidahmad Siddiqiy tomonidan «Mir'oti Ibrat», «Anjumani arvo», «Ganjinai hikmat», «Aynul adab, Fitrat tomonidan «O'quv kitobi», «Ona tili» darsligi, «Imlo masalalari», «O'zbek tilining sarfi», «O'zbek tilining navhi», «Adabiyot qoidalari», «Ahmad Yassaviy hikmatlari», «Eski Turk adabiyoti namunalari», Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», Abdulla Avloniy tomonidan «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq, «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» nomli bir qator darsliklar yaratildi va o'zlarining tashabbusi bilan ochilgan maktablarda foydalanildi.

Jadidlar tomonidan ishlab chiqilgan mana shunday darsliklar orasida Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati va darsliklar yaratish yo'lida qilgan mehnati alohida ajralib turadi. Sababi shundaki, bu darsliklar boshqa jadidlar tomonidan ishlab chiqilgan darsliklarga nisbatan mukammalroq hisoblanib, hozirgi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga juda yaqindir.

Abdulla Avloniy yaratgan darsliklarni yana bir afzallik jihati boshlang'ich sinfda xat-savod chiqarishdan boshlanib, sinflar darajasi va o'quvchilar bilimiga qarab, o'sib borish tartibida tuzilganligidadir.

Ushbu ma'lumotlarni o'qib shunday xulosaga kelish mumkinki, Abdulla Avloniy o'zining pedagogik qarashlari bilan birinchi o'zbek pedagogikasi uchun tamaltoshini qo'yib berdi. Uning faoliyati va ko'p yillik mehnatlari evaziga hozirgi ta'lim tizimining yaxlit bir korpus sifatida shakllanib qoldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
2. Dilafruz, Kalandarova. "Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
3. Reichl, Karl. *Routledge Revivals: Turkic Oral Epic Poetry (1992): Traditions, Forms, Poetic Structure*. Routledge, 2018.
4. Каландарова, Д. А., and З. Ф. Каршибоева. "ХАРАКТЕР ТВОРЦА В ПОЭЗИИ БАБУРА." *Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.*. Litres, 2022.
5. Kalandarova Dilafruz, Dilafruz. "Research of the Sherabad Epic School Abroad." *International Journal on Integrated Education* 5.10 (2022): 149-151.
6. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 268-273.
7. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).
8. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.5 (2022): 105-110.
9. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Education of children through national mobile games in preschool educational institutions." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 486-490.
10. Алимova, Зулфия Каримовна, and Дилафруз Абдужамиловна Каландарова. "Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях." *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ*. 2020.

11.Алимова, З. К., and И. М. Расулова. "ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.